

Belgilab berilgan vazifalar ijrosi yuzasidan 2024-yilning III- choragida amalga oshirilgan ishlar

Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasining Kengashining kengaytirilgan yig‘ilishini boshqarma boshlig‘i Sh. Mamadaliyev ochib berdi va yig‘ilish kun tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirib o‘tdi.

Shuningdek, Statistika dasturi doirasida boshqarma va uning hududiy statistika organlari tomonidan 2024-yilning III choragida amalga oshirilgan ishlar, pirovardida ishlab chiqilgan tahliliy-statistik ma‘lumotlarni keltirib o‘tdi. Jumladan, dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2024- yilning yanvar-sentabrida Farg‘ona viloyati bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot hajmi joriy narxlarda 63 620,4 mlrd so‘mni tashkil etdi va 2023- yilning yanvar-sentabri bilan taqqoslaganda 6,9 % ga o‘tdi. YAHM deflyator indeksi 2023- yilning yanvar-sentabridagi narxlariga nisbatan 110,9 % ni tashkil qildi. O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMning shakllanishida Farg‘ona viloyatining qo‘shgan hissasi 6,3 % ga yetdi.

Viloyat korxonalarini tomonidan 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida 34 004,0 mlrd so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2023-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 108,3 % ni tashkil etdi.

2024–yilning yanvar–sentabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 30 373,9 mlrd so‘mni yoki 2023–yilning mos davriga nisbatan 104,0 % ni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida, Farg‘ona viloyatida jami 11 240,2 mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘shir sur‘ati 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 109,6 % ni tashkil etdi.

Ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar va tashkilotlar soni 2024-yilning 1-oktabr holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) 63 855 tani tashkil etib, ulardan 38 332 tasi yoki 60,0 % i faoliyat ko‘rsatmoqda. 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatda 5 034 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 37,7 trln so‘mni, 2023-yilning mos davriga nisbatan o‘shir sur‘ati 111,9 % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi 22,3 trln so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 108,2 % ga oshdi. Viloyatning tashqi savdo aylanmasi hisobot davrida 1 569,5 mln AQSH dollarini, jumladan eksport – 627,3 mln AQSH dollari va import – 942,1 mln AQSH dollarini tashkil etdi.

Farg‘ona viloyatida 2024- yil 1- oktabr holatiga doimiy aholi soni 4 123,6 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 83,0 ming kishiga yoki 2,1 % ga ko‘paydi.

Farg‘ona viloyatida 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida 16 607,4 mlrd so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, ularning 71,6 %i yoki 11 855,2 mlrd so‘mi jalb etilgan mablag‘lar hisobidan moliyalashtirilgan bo‘lsa, korxonalar, tashkilot va aholining o‘z mablag‘lari hisobidan 28,4 % yoki 4 722,2 mlrd so‘m moliyalashtirildi.